

## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLARIDA ISLOM OMILINI O'RGANISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Xolxo'Jayev Saidkomil Muhammadkarimovich**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamalakatlarida kuzatilayotgan islomiy tiklanish jarayonida islomning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini o'rganishning o'ziga xos muammolari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Markaziy Osiyo, O'zbekiston, din, islom dini, jamiyat, siyosat, xalqaro munosabatlar, islom omili, din omili*

Islom dini o'zining o'n to'rt asrlik tarixi davomida jahon sivilizatsiyasining rivojlanishida, xususan Markaziy Osiyo xalqlarining taraqqiyotida muhim o'rin tutib kelgan. Zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan mintaqaviy va global siyosiy jarayonlarda ham islomning o'rni ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, islom va uning jahon siyosati, xususan Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotidagi o'rnini tadqiq qilish bugungi kunda yanada dolzarb hisoblanmoqda. Islom dinining siyosiy sifati giyosiy muammo sifatida baholanib, "din geosiyosati" va "islom geosiyosati" kabi tushunchalarning muomilaga kirib kelishiga zamin yaratmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari islom omilini o'rganish, shuningdek, postsovet mintaqada sifatida "islomiy tiklanish" jarayonlarini kuzatish uchun o'ziga xos noyob mintaqqa hisoblanadi.

O'zbekistonlik olim Shuhrat Yovqochev din insoniyatning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichida ajralmas qism hisoblanishni ta'kidlagan holda din va siyosat ildizlarining bir biriga qanchalik bog'langanligini tushunish uchun, dinning mohiyatini tushunish, uning jamiyatdagi rol va funksiyasini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi.<sup>10</sup> Amerikalik ilohiyotshunos siyosatchi Uilyam Kavano xalqaro munosabatlar va jahon siyosati fanida din tushunchasining yagona kelishilgan tavsifi mavjud emasligini ta'kidlaydi. Olim din haqidagi ko'plab qarashlarni jamlab tahlil qilgach, ushbu fanda din tushunchasiga berilgan ta'riflar bugungi kunda kelib eskirib qolgan, degan xulosani aytadi.<sup>11</sup>

Bugungi kunda islom omilining xalqaro, mintaqaviy va davlat kesimidagi ta'sirini o'rganishning nazariy-metodologik jihatlarida bir qator muammolar mavjudligini qayd etishimiz zarur. *Birinchi*dan, bugungi kunda zamonaviy xalqaro

<sup>10</sup> Yovqochev Sh. Siyosat va din.—Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010.—B. 4.

<sup>11</sup> Cavanaugh W. The Report of the Working Group on International Relations and Religion of the Mellon Initiative on Religion Across the Disciplines.—Notre Dame: University of Notre Dame, 2012. pp. 56–68.



munosabatlar tizimi asosan dunyoviy xarakterga ega<sup>12</sup> bo'lib, asosan Yevrotsentrizm mafkurasiga tayanadi. Rus olimi Galina Yemelyanova sohaga oid tadqiqotlar asosan Yevrotsentrizmning empirik nazariyalari va paradigmalarga asoslangan holda amalga oshirilganini kuzatgan. Olim ushbu tadqiqotlarda asosan "ikkinchi qo'l" G'arb, xususan rus manbalariga tayanilganini aytadi.<sup>13</sup> Mamlakatimizda ham, Shuhrat Yovqochev ta'kidlaganidek, sohaga oid izlanishlar an'anaviy ravishda rus va sovet sharqshunosligiga bog'liq bo'lib, ularning ildizlari esa nemis maktabining salmoqli ta'siri ostida shakllangan Yevropa sharqshunosligiga borib taqaladi.

Turkiyalik Ali Bakir, britaniyalik Monika Daffi Toft kabi tadqiqotchilar Yevrotsentrizm asosida shakllangan an'anaviy nazariyalar jahonda sodir bo'layotgan voqealarni tushunishda tor yo'lni taklif etishini ta'kidlamoqdalar.<sup>14</sup> Shu bois, N.Adiong, D.Abdelkader, R.Murelyo kabi tadqiqotchilar islom nuqtayi nazardan xalqaro munosabatlarda din omilini tushuntirib berish va uni modellashtirishga uringanlar.<sup>15</sup> Yusupova xorijlik tadqiqotchilar D. Khizersho va David W. Montgomerydan iqtibos qilib "Markaziy Osiyoda siyosiy islom bilan bog'liq vaziyatni chuqur anglash uchun sekulyarizm, islom va davlat o'rtasidagi murakkab aloqalarni yaxshilab anglash kerak. Bundan tashqari, sekulyarizm islom olamida sobiq ittifoq davridan keyingi davrda juda katta kuch sifatida namoyon bo'ldi. U radikalizmni cheklaydi, biroq, ayni paytda, islom haqida haddan tashqari bo'rttirilgan qo'rquvni yaratadi", deya, islom bilan siyosiydashgan islomning, ya'ni islomiylik va radikalizmning bir-biridan farqini tushunib olish muhim ekanligini hamda islomni faqat radikal ko'rinishga ega, deb qarash noto'g'ri ekanligini keltiradi.<sup>16</sup>

*Ikkinchidan*, tadqiqotchilar orasida Markaziy Osiyosini yagona islom olamining ajralmas qismi yoxud mintaqada islom ateistik kommunizm mafkurasini ta'sirida rivojlangani bois alohida mintaqada ekanligi haqida ixtilofli qarashlar kuzatiladi. Mustaqillikning ilk davrida Yaqin Sharq bo'yicha ixtisoslashgan tadqiqotchilar Markaziy Osiyoda ham islom omilini tadqiq qilishga urinib ko'rdilar. Ammo tez orada

<sup>12</sup> Yovqochev Sh. Jahon siyosatida islom omili. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022. – B. 7.

<sup>13</sup> Yemelianova G. "How 'Muslim' are Central Asian Muslims? A Historical and Comparative Enquiry." Being Muslim in central Asia : practices, politics, and identities / edited by Marlene Laruelle.—Leiden, Boston: Brill, 2018. Seriyes: Euratsian studies library, Vol. 9.—pp. 10–12.

<sup>14</sup> Qarang: Bakir A. Islam and International Relations (IR): Why is there no Islamic IR theory? – Third World Quarterly, Volume 44, 2023 — Issue 1.—B. 22–38; Monika Duffy Toft. Religion and International Relations Theory. Handbook of International Relations.—Oxford: Oxford University Press, 2012.—P. 673.

<sup>15</sup> Qarang: Abdelkader D., Adiong N. M., Mauriyello R. Islam and International Relations: Contributions to Theory and Practice. – Palgrave Macmillan, 2016; Adiong N. M. International Relations and Islam: Diverse Perspectives. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2013.

<sup>16</sup> Yusupova D. D. O'zbekistonda din omili transformatsiyasining namoyon bo'lishi xususiyatlari. // Konsensus xalqaro jurnali. № 1 (2020) — B. 106–114. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0788-2020-1>



umumiy islom merosiga oid bilimlar bilan Markaziy Osiyodagi sovet islom merosini tadqiq qilishda qiyinchiliklarga duch keldilar.<sup>17</sup> Shu bois, Markaziy Osiyoda islomning qayta tiklanishi mintaqaning mustaqil ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi natijasi yoxud tashqi ta'sirlarga bog'liq hodisa ekanligi haqida turli qarashlar shakllandi. Tojikistonlik tadqiqotchi Saodat Olimova olimlarning aksari o'tgan asrning 80-90 yillarida mintaqada islom dinining qayta tiklanishi tashqi ta'sirlar va prozelitizm natijasida sodir bo'lgan degan fikrda ekanligini ta'kidlagan.<sup>18</sup>

*Uchinchidan*, Shuhrat Yovqochev ta'kidlaganidek, rus klassik olimlari tomonidan shakllantirilgan sohaga oid nazariy yondashuvlar o'tgan asrning 30 yillaridan boshlab jangari ateizm bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "*vulgar sotsiologik yondashuv*"ga asoslandi. Natijada mintaqada islom omilini tadqiq qilish yo'nalishi kommunizmning jangovar ateizmi ta'siri ostida qoldi. Olim shuningdek, islomshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, sohaning "*ma'naviy va madaniy merosni*" targ'ib qiluvchi vositaga aylantirmaslik, lozimligini aytadi. Unga ko'ra postsovet davrda diniy va milliy qadriyatlarining tiklanishi hamda islomshunoslik sohasidagi akademik tadqiqotlarning zaifligi sohaga oid tadqiqotlarda ikki xil—oddiy apologetika va akademik (ateistik emas)—yondashuvlarni shakllantirdi. O'zbekistonlik tadqiqotchi Dildora Yusupova O'zbekistonda din omilini o'rganish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjudligini, ushbu muammolarning sababi "o'tgan asrning ba'zi kamchiliklarining takrorlanishida" ko'rinayotganini bildiradi.<sup>19</sup> "Chunonchi, O'zbekistonda diniy identifikatsiya muammosini o'rganishda bir qator to'siqlar mavjud bo'lib, shulardan biri o'tgan asr stereotiplari va siyosiy mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan muammolardir".<sup>20</sup> Ana shunday kamchiliklardan xoli bo'lish mintaqada din va davlatning o'zaro munosabatlarini tizimga solish va to'g'ri integratsiya qilishga imkon yaratadi.

*To'rtinchidan*, mahalliy tadqiqotchilarda apologetik yondashuvga moyillik kuzatilsa, Galina Yemelyanova xorijlik tadqiqotchilari orasida islom omilini fanlararo yondashgan holda akademik tadqiq qilish, sohani chuqur o'rgangan holda "*birinchi qo'l*" empirik natijalarni qo'lga kiritish uchun yetarli malakaga ega mutaxassislar soni cheklanganini muammoli omillar qatorida keltiradi. Masalan, xorijiy siyosatshunos

<sup>17</sup> Laruelle, M. *Being Muslim in Central Asia: Practices, Politics, and Identities*. Eurasian Studies Library (Vol 9).— Leiden, Boston: Brill, 2018.—P. 1.

<sup>18</sup> Olimova S. "Confronting or Engaging Islam: Are there different approaches in Central Asian countries?". *Islamic Revival in Central Asia: The cases of Uzbekistan and Tajikistan*. Documentos CIDOB, Asia 26, March 2011,—pp. 2–9.

<sup>19</sup> Yusupova D. D. O'zbekistonda din omili transformatsiyasining namoyon bo'lishi xususiyatlari. // *Konsensus xalqaro jurnali*. № 1 (2020) — B. 106–114. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0788-2020-1>

<sup>20</sup> O'sha manba.



va sotsiolog olimlari bunday tadqiqotlarni olib borish uchun mahalliy tillarni yetarli darajada bilmaydilar.<sup>21</sup>

*Beshinchidan*, xoh xorijiy xoh mahalliy tadqiqotchilar sof akademik yondashuv bilan mintaqada islom omilini tadqiq qilishga kirishgan taqdirda ham, mintaqada empirik tadqiqotlarni amalga oshirishda amaliy, logistika va siyosiy to'siqlar hozir ham avvalgidek mavjuddir. Mahalliy hukumatlarning diniy sohaga oid xorijdan moliyalashtirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish hamda mahalliy aholining bunday tadqiqotlarga nisbatan hadik bilan yondashishini shunday to'siqlar qatoriga qo'shish mumkin.

Shuhrat Yovqochev aholining aksar qismi musulmonlardan iborat ekanligi, mintaqaning islom olami bilan to'g'ridan-to'g'ri, tarixiy va madaniy yaqin aloqada ekanligi, islomning o'zbek xalqining tarixi va madaniyati, o'zbekona hayot tarzining ajralmas qismi hisoblanishi, islomning davlat va jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotida muhim o'ringa ega omil ekanligi sababli mintaqada islom omilini akademik tadqiq qilish zarurligini ta'kidlaydi. Zero, akademik tadqiqotlar birinchi navbatda ilmiy ehtiyojlar uchun zarur hisoblansa, eng muhimi, mamlakatda barqarorlikni ta'minlashga mas'ul davlat tashkilotlari uchun din bilan bog'liq masalalarni tartibga solishga qaratilgan kerakli ichki va tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilish uchun ilmiy asos asos bo'ladi.

Yuqoridagidek to'siqlar va muammolar ta'sirida Markaziy Osiyoda islomning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri haqidagi ixtilofli tasavvurlar va farazlar shakllandi. Bunga mintaqada mustaqillikdan keyingi davrda Turkiya, Eron va Afg'oniston kabi asosiy musulmon qo'shni davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va diniy ta'siriga tushib qoladi degan qarashlar misol bo'ladi.<sup>22</sup> O'tgan asrning 90-yillarining oxirida Afg'onistonda Tolibonlar ta'siri kuchaygach, Markaziy Osiyoda islomning radikal ko'rinishi, ayniqsa jihadchilik harakatlari avj oladi, degan farazlar ilgari surildi.<sup>23</sup> O'tgan o'n yillikda ayrim tadqiqotchilar "Arab bahori" inqiloblariga qo'shilgan holda mintaqadagi tuzumning shiddatli o'zgarishi sodir bo'lishi haqida bashorat qildilar.<sup>24</sup>

<sup>21</sup> Yemelianova, G. "How 'Muslim' are Central Asian Muslims? A Historical and Comparative Enquiry." *Being Muslim in central Asia : practices, politics, and identities* / edited by Marlene Laruelle.—Leiden, Boston: Brill, 2018. Seriyes: Euratsian studies librVol. 9.—pp. 10–12.

<sup>22</sup> Qarang: Hunter S.T. "Iran, Central Asia, and the Opening of the Islamic Iron Curtain". R. Sagdeev and S. Eisenhower (eds), *Islam and Central Asia: An Enduring Legacy or an Evolving Threat?*—Washington, D.C.: Center for Political and Strategic Studies, 2000.—pp. 171–191; Rashid A. *Islam in Central Asia: Afghanistan and Pakistan*. Sagdeev and Eisenhower. *Islam and Central Asia*.—pp. 213–236; Yavuz, M.H. *Turkish Identity Politics and Central Asia*. Sagdeev and Eisenhower. *Islam and Central Asia*.—pp. 193–211.

<sup>23</sup> Qarang: Karagiannis E. *Political Islam in Central Asia: The Challenge of Hizb ut-Tahrir*.—London: Routledge, 2010; Rashid A. *Jihad: The Rise of Militant Islam in Central Asia*.—New Haven, CT: Yale University Press, 2002.

<sup>24</sup> Qarang: Schmidt A., Wolters A. *Political Protest in Central Asia: Potentials and Dynamics*. SWP Research Paper No. 7. —Berlin: German Institute for International and Security Affairs, 2012.



Sovet olimi N. Ashirov o'z davrida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar musulmon aholining dunyoqarashi o'zgartirayotgani, musulmon ulamolarini islomiy ta'limotlarni yangicha sharhlashga majbur qilayotgani ta'kidlaydi.<sup>25</sup> Aleksandr Bennigsen esa, aksincha, islom omili Sovet Ittifoqida musulmonlarning sovetlashuviga samarali qarshilik ko'rsatib, musulmonlarning o'ziga xos o'zligini saqlab qolgan, degan qarashni ilgari suradi. Aleksandr Bennigsen Sovet Ittifoqida islomiy ta'limning taqiqlanishi natijasida Markaziy Osiyoda islom ta'limoti o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, islomiy rasm-rusumlar madaniy unsurlar sifatida saqlanib qolgan, degan fikrni ilgari surgan. Uning taxminlari Sovet Ittifoqining parchalanishidan keyingi davrda o'z tasdig'ini topdi. Bennigsenning qarashlari Zbigniyev Bjezinskiy tomonidan Millatlar ishchi guruhi ("Nationalities Working Group") tashkil etilishiga turtki bo'lgan. Ishchi guruh Bennigsenning Markaziy Osiyoda islomiylikni targ'ib qilish musulmonlarning sovet hokimiyatiga qarshi isyon qilishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi farazlarni qo'llab-quvvatlagan.

Mustaqillikdan keyingi o'n yillikda Markaziy Osiyoda islom omilini amerikalik olim Adib Xolid ham islom dinining mintaqa xalqlarining o'z-o'zini anglashidagi o'rnini tadqiq qilgan.<sup>26</sup> Unga ko'ra, "Markaziy osiyoliklarning milliy merosini qayta tiklash qisman bo'lsada islom va musulmon madaniyatini qayta kashf qilish hamda sovet ksenofobiyasi ta'sirida butun islom olami bilan uzilgan aloqalarni qayta tiklashni anglatadi".<sup>27</sup> 2000-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda islom omilini tadqiq qilishda mintaqa haqida yanada chuqurroq ma'lumotga ega, mamlakatlar kesimida ixtisoslashgan, mahalliy tillarni o'zlashtirgan g'arblik olimlarning yangi avlodi shakllanganini ko'rish mumkin. Yangi avlod tadqiqotchilari Markaziy Osiyoda islom omilini mustaqillikning ilk davrida kuzatilganidek konseptuallashtirish emas, balki mintaqadagi turli musulmon jamoalarini alohida o'rgangan holda tushunishga harakat qilmoqdalar. Xususan, Aleksandr Bennigsen va Shirin Akiner Markaziy Osiyoda islom va etnik o'ziga xosligi o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilgan. B. Junisbay, B. Jussupov, G. Yemelyanova, Ya. Roi, A. Vainer, R. Turayevalar mintaqada milliy o'zlikni anglashda din omilini tahlil qildilar.<sup>28</sup> Fransuz olimi Marlen Laruelle esa mintaqada islomning jamoaviy va shaxsiy o'zlikni shakllantiruvchi muhim omilga aylanayotganini ta'lim tizimida diniy fanlarni joriy qilishni talab qiluvchilar, ro'za va

<sup>25</sup> Аширов Н. Эволюция ислама в СССР.—Москва: Политиздат, 1973.—150 с.

<sup>26</sup> Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia.— Berkeley and Los Angeles, California: University of California Press, 2007. — pp. 84–113.

<sup>27</sup> O'sha manba.

<sup>28</sup> Laruelle M. Being Muslim in Central Asia: Practices, Politics, and Identities. Eurasian Studies Library (Vol. 9).— Leiden, Boston: Brill, 2018.—pp 11–84.



zakot kabi ibodatlarni bajaruvchi musulmonlarning sonini keskin o'sishi kabi fenomenlar bilan asoslashga harakat qilgan.<sup>29</sup>

Nemis tadqiqotchisi Aleksandr Volters esa Markaziy Osiyo davlatlarida islom omilining o'ziga xos yo'nalishlaridan biri – ya'ni islom moliyasi sohasini tadqiq qilgan. V. Shvab esa Qozog'istondagi "Asil Arna" islomiy media platformasining o'rta tabaqa aholi o'rtasida islomiy hayot tarzini targ'ib qilishdagi tajribasini o'rgangan holda islom omilining mintaqadagi madaniy jarayonlarga ta'sirini asoslab bergan. Ra'no Turayeva islomning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotiga ta'sirini Markaziy Osiyo va Rossiya o'rtasidagi transmilliy tadbirkorlar faoliyati va norasmiy iqtisodiy munosabatlar misolida tadqiq qiladi. Ushbu tadbirkorlar uchun islomning norasmiy tijoriy munosabatlarni tartibga soluvchi yechim sifatidagi o'rniga e'tibor qilgan.<sup>30</sup>

Markaziy Osiyo davlatlari rivojida islom omili bo'yicha tadqiqotlarning aksar qismi mintaqadagi dunyoviy tizim va islom o'rtasidagi munosabatlar mavzusiga bag'ishlanadi. M. Laruelle mustaqillikdan keyingi Markaziy Osiyo davlatlaridagi islom va davlat o'rtasidagi munosabatlarni "shizofrenik xarakterga ega" deb tasvirlaydi. Buni, bir tomondan, davlat tomonidan islomiy qadriyatlarining e'tirof etilishi, ikkinchi tomondan, diniy rasm-rusumlarning monitoring qilinishi, diniy ta'limning qat'iy chegaralangani, musulmon olami bilan har qanday mustaqil aloqalar shubha bilan qaralib kelinishi bilan izohlaydi. U, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar murakkab ko'rinishga ega ekanligini yozadi.<sup>31</sup>

Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyoda sodir bo'layotgan "islomiy uyg'onish" haqida tadqiqotchilar tomonidan turlicha fikrlar ilgari surilmoqda. Umuman olganda ushbu fenomenni "islomiy uyg'onish", "qayta islomlashuv", "revayvalizm", "ikkinchi bor islomlashuv" atamaları bilan nomlash, yoxud "islomizm" va "fundamentalizm" kabi tushunchalar tadqiqotchilarning munozarasi mavzusiga aylangan.<sup>32</sup> Marlen Laruel "Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng Markaziy Osiyodagi jamiyatlarning "qayta islomlashuvi"ning siyosat bilan aloqasi yo'q" degan qarashni ilgari suradi.<sup>33</sup> Yana bir fransuz olimasi A. Biard esa, aksincha,

<sup>29</sup> O'sh manba.—B. 3.

<sup>30</sup> O'sh manba.—B. 6.

<sup>31</sup> Laruelle M. *Being Muslim in Central Asia: Practices, Politics, and Identities*. Eurasian Studies Library (Vol. 9).—Leiden, Boston: Brill, 2018.—P. 4.

<sup>32</sup> Olimova S. "Confronting or Engaging Islam: Are there different approaches in Central Asian countries?". *Islamic Revival in Central Asia: The cases of Uzbekistan and Tajikistan*. Documentos CIDOB, Asia 26, March 2011,—pp. 2–9

<sup>33</sup> Laruelle M. *Being Muslim in Central Asia: Practices, Politics, and Identities*. Eurasian Studies Library (Vol. 9).—Leiden, Boston: Brill, 2018.—P. 1.



qirg'izistonlik o'zbek mullalar misolida mintaqada siyosiy islomiy harakatlar faolligi haqida xulosa qilgan.<sup>34</sup>

Markaziy Osiyo davlatlarining istiqboldagi rivojida islom omilining o'rnini haqida so'z borganda, V. V. Bartoldning tarixan islom yangi sharoitlarga moslashish va yashab qolish salohiyatiga egaligi haqidagi xulosasi oradan yuz yil o'tgach yana o'z tasdig'ini topganini ko'rishimiz mumkin. Aleksandr Bennigsen 1980-yillarda Sovet rahnamolari kelajakda sovet xalqi mushtarak hayot tarzi va madaniyatga ega bo'lib, islom boshqa dinlar singari Sovet Ittifoqida yo'qolib ketishi va aholining aksari ateistlardan iborat bo'lishini taxmin qilishini aytgan edi.<sup>35</sup> Ammo, Sovet Ittifoqi davridagi dinga qarshi siyosat hamda mustaqillikning dastlabki o'n yillarida Markaziy Osiyo davlatlarida dinga nisbatan qattiqqo'l siyosat Xrushchev ta'biri bilan aytganda: "nafaqat dindorlar sonini kamaytira oldi, aksincha ko'paytirdi".<sup>36</sup> Markaziy Osiyodagi yetmish yillik sovet hokimiyati islom omilini yo'qotolmadi, balki mintaqada dunyoviy jamiyatning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo davlatlarida sodir bo'lgan turli tarixiy jarayonlar tahlili, mintaqada "qayta islomlashuv" jarayonlariga moyil ekanligini ko'rsatmoqda. Tojikistonlik tadqiqotchi Saodat Olimova Markaziy Osiyoning qayta islomlashuvida islom o'zini buzg'unchi yoki bunyodkor omil vazifasini bajarishini tahlil qilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchi Farhod Tolipov 2011-yildayoq Markaziy Osiyoda islomning siyosiy uyg'onishining bir qancha ssenariylarini sanab o'tadi. Oradan o'n yil o'tib, olimning mintaqada jahon miqyosidagi "islomiy geosiyosat" ta'siridan omonda qolmasligi, tashqi radikal-ekstremist kuchlar mintaqada buzg'unchilik faoliyatini davom ettirishi, Markaziy Osiyoning geosiyosiy transformatsiyasi nafaqat iqtisodiy yoki harbiy-strategik, balki diniy-sivilizatsion kontekstda amalga oshishi haqidagi taxminlari o'z tasdig'ini topganini aytishimiz zarur.<sup>37</sup>

Xulosa o'rnida bugungi kunda Markaziy Osiyoda islom omilini tadqiq qilish avvalgidanda dolzarb masalaga aylanganini aytish mumkin. Tadqiqotchilar mintaqada sodir bo'layotgan jarayonlarni anglashda islom omilini yevrotsentrizm hamda g'arb sharqshunosligi ta'siridan holi ravishda o'rganish zarurligini ta'kidlamodalar. Buning uchun xolisona akademik yondashuv bilan islomning Markaziy Osiyo davlatlarining rivojiga ta'siri keng va chuqur o'rganilishida davom etishi kerak.

<sup>34</sup> O'sha manba.—B. 5.

<sup>35</sup> Bennigsen A., Broxup M. *The Islamic Threat to the Soviet State*.—New York: Routledge, 2014.—P. 123.

<sup>36</sup> O'sha manba.—B. 146.

<sup>37</sup> Tolipov F. "Confronting or Engaging Islam: Are There Different Approaches in Central Asian Countries?" *Documentos CIDOB, Asia*, 26 (2011): pp. 10–15.





Sovet va postsovet davrida kuzatilgan islomga nisbatan adovatli yoxud qat'iy siyosatga qaramay, bugungi kunda Markaziy Osiyoda islomning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri ortishda davom etmoqda. Islom omili, bir tomondan, mintaqada o'zining siyosiylashgan, fundamental va radikal jihatlarini, ikkinchi tomondan, bugungi globallashuv davrida butun musulmon olamida kuzatilayotgan madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish jihatidan Markaziy Osiyo davlatlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo davlatlarida islom omilini tadqiq qilishda uning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga konstruktiv yoki destruktiv jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Markaziy Osiyoda islom omilini o'rgan tadqiqotchilar mintaqada islomiy tiklanish jarayonlarining davom etishi va kuchayib borishi, islomning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri sezilarli darajada ortib borishini taxmin qilmoqdalar. Shubhasiz, Markaziy Osiyo davlatlarining istiqboldagi rivoji va siyosatida islom omili ortishida davom etadi. Shu bois, islomning mintaqaning ijtimoiy-siyosiy hayotidigi o'rnini o'rganishda mintaqqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy yondashuv talab etiladi.

